

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLAR EKOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekologiyasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekologiyasi

1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning fan-texnika sohasidagi o'rni;
2. O'zbekiston Respublikasining alohida muhofaza etiladigan hududlari;
3. Qo'riqxonalar tavsifi;
4. Tabiat yodgorliklari va milliy bog'lar.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning fan-texnika sohasidagi oʻrni	Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar fan hamda texnika rivojiga taʼsiri–tabiiy jarayonlar va fan-texnika oʻzaro bogʻliqligini ajratish; muhofaza etiladigan hududlarni aniqlash, fan va texnika rivojiga tabiiy jarayonlar taʼsirini tahlil qilish, fan va texnikaning tabiiy jarayonlarga bogʻliqligini tushunish, izohlash; Qoʻriqxonalar va buyurtmaxonalar bilish, hayvonlar, oʻsimliklar, bakteriyalar, zamburugʻlarni taʼriflash, ularning muhofaza chora – tadbirlarini qoʻllash va koʻpaytirish haqida bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi lozim.	15 %	6 ta
2	Oʻzbekiston Respublikasining alohida muhofaza etiladigan hududlari	Qoʻriqxona atrof-muhitni muhofaza qilish ishida alohida ahamiyatga ega boʻlishi; landshaftlarni, tabiat yodgorliklarini, oʻsimlik va hayvonot dunyosini, tuproqlarni muhofaza qilish; ilmiy jihatdan oʻrganish; koʻpaytirishda oʻsimlik va hayvonlarni genofondini saqlash va ularning ahamiyatini tahlil qilish haqida bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi lozim.	20 %	8 ta
3	Qoʻriqxonalar tavsifi	Qoʻriqxona tabiat komponentlarni tabiiy holida saqlab qolish; qoʻriqxonalarni taʼriflash, vazifalarini tahlil qilish, flora va fauna turlarini farqlash; soni kamayib va yoʻqolib borayotgan oʻsimlik va hayvon turlarini koʻpaytirish; munosabatlarini tahlil qilish; turli guruhlar oʻrtasidagi farqlarni aniqlash va misollar keltirish; biologik xilmaxillik haqida bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi lozim.	47.5%	19 ta
4	Tabiat yodgorliklari va milliy bogʻlar	Tabiat yodgorliklar va milliy bogʻlar relyef shakllarini aniqlash; yoʻqolib va kamayib borayotgan turlarni tahlil qilish; asosiy genetik qonuniyatlarni qoʻllash va misollar bilan izohlash; genetik maʼlumotlarni aniqlash haqida bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi lozim.	17.5 %	7 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	22,5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	62,5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	15 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Mirzaqulov U.M., Pirmetov J.N., Ugom-chotqol milliy bog'i florasining rasmiy aniqlagichi. "Samo nashr". Toshkent.2023
2. Xakimov O'.T. Yurtimizda mavjud muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, ularning ahamiyati va bugungi kundagi ahamiyati. Maqola
3. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi (II-jild) Toshkent. 2009
4. Xo'janazarov O'. E., Sh.Yakubjanova "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish". Toshkent. 2018.